

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTIDA KUZATISH
MASHG'ULOTLARINI SAMARALI TASHKIL ETISH METODIKASI.

Xolboyeva Gulnora Ulashovna

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, (PhD)
TerDPI Maktabgacha ta'limda tarbiyani tashkil
etish kafedrası katta o'qituvchisi, v.b.dotsenti.

Yoqubova E'zoza

Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 3- kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotida kuzatish mashg'ulotlarini samarali tashkil etish masalalari yoritilgan. Maqolada kuzatishning ta'limiy va tarbiyaviy ahamiyati, uni o'tkazish bosqichlari, bolalarda kuzatuvchanlik, tafakkur va nutqni rivojlantirishdagi o'rni tahlil qilinadi. Kuzatishning turlari haqida batafsil yoritiladi.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, kuzatish mashg'uloti, tabiat, bilish faoliyati, ekologik tarbiya, kuzatuvchanlik.

METHODOLOGY FOR EFFECTIVE ORGANIZATION OF
OBSERVATION ACTIVITIES IN PRESCHOOL EDUCATIONAL
INSTITUTIONS.

Gulnara Ulashovna Kholbaeva

Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, (PhD)
TerDPI organization of preschool education
senior lecturer of the department, v.b.dots.

Yoqubova E'zoza

student of the Preschool Education

Departmentchool Education Department

ANNOTATION: This article discusses the issues of effective organization of observation sessions in a preschool educational organization. The article analyzes the educational and educational significance of observation, the stages of its implementation and their role in the development of observational thinking and speech in children. The types of observation are discussed in detail.

Keywords: preschool education, observational training, nature, cognitive activity, ecological education, observation.

Maktabgacha ta'lim tizimida bolalarning atrof-muhit, tabiat va hayot hodisalari haqida dastlabki tushunchalarini shakllantirishda kuzatish mashg'ulotlari

muhim o‘rin tutadi. Bola o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan, qo‘li bilan ushlagan, bevosita kuzatgan narsasini tezroq eslab qoladi va uni ongida mustahkam tasavvur sifatida saqlab qoladi. Shu bois kuzatish mashg‘ulotlari maktabgacha yoshdagi bolalarda bilish faoliyatini, tafakkurini, diqqat va nutqini rivojlantirishning samarali vositasi hisoblanadi.

Bungi kunda ta‘lim jarayonini zamonaviy metodlar asosida tashkil etish, bolalarni faol ishtirokchi sifatida jalb etish, ularning tabiat hodisalarini idrok etish va tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish maktabgacha ta‘limning asosiy vazifalaridan biridir. Kuzatish mashg‘ulotlarini to‘g‘ri tashkil etish nafaqat bolalarning bilim doirasini kengaytiradi, balki ularda tabiatga mehr, ekologik madaniyat va estetik didni ham shakllantiradi.

Shu sababli mazkur maqolada kuzatish mashg‘ulotini samarali tashkil etishning bosqichlari, usullari hamda tarbiyachining bu jarayondagi o‘rni haqida fikr yuritiladi.

Metod bu- bilimlarni egallash malaka va ko‘nikmalarni hosil qilish hamda qobiliyatlarni o‘stirish, axloqiy sifatlar xulq-atvorlarni shakllantirishga erishish uchun yóllangan hamkorlikdagi faoliyati hisoblanadi. Maktabgacha ta‘lim tashkiloti bolalar hayotida metod muhim ôrin egallaydi. Metodlar o‘g‘zaki, amaliy ko‘rgazmali metodlarga bôlinadi. Kôrgazmali metod turlari kuzatish, rasmlarni ko‘rish, Diya film va kino film, ekskursiya turlari mavjud. Kuzatish muddatiga qarab ikki turli bôladi: qisqa muddatli kuzatish, uzoq muddatli kuzatish. Kuzatish-murakkab bilish faoliyati bôlib bolalarda idrok, taffakur, nutqni rivojlantirishga va barqaror diidqatni shakllantirishga xizmat qiladi. Bolarni tabiat bilan tanishtirishda doimiy kuzatishlar olib boriladi, mantiqiy fikr yuritishda g‘oyat katta ahamiyat kasb etadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni ekologik tarbiyalashning turli usullari orasida kuzatuvga muhim o‘rin berilishi kerak. Uning mohiyati tabiiy ob'ektlarni hissiy bilishda, ularni idrok etishning turli shakllari - ko‘rish, eshitish, taktil, kinestetik, hid bilish va boshqalar orqali bilishdadir. Tabiatni hissiy bilishning

to'g'ri tashkil etilishi bolalarda turli xil g'oyalarning shakllanishi va rivojlanishini ta'minlaydi, hayvonlar va o'simliklar haqida, tabiatning mavsumiy hodisalari haqida. Kuzatishlarga rahbarlik qilish maktabgacha yoshdagi bolalarni tabiiy ob'ektlarning eng xilma-xil xususiyatlarini aniqlashga va eng muhimlarida harakat qilishga, ular orqali o'simliklar va hayvonlarning jonsiz tabiat hodisalari bilan aloqasini aniqlashga o'rgatish imkonini beradi.

Taniqli psixolog S.L.Rubinshtyn "kuzatishni mazmunli idrok etishning natijasi" deb hisoblaydi .

U idrok va kuzatishning turli shakllarining rivojlanishini mazmun bilan bog'laydi. Bir tomondan, kuzatish bilim manbai bo'lsa, ikkinchi tomondan, uning o'zi kuzatishlar haqida ma'lum bilimlarni talab qiladi. Ob'ektlarni mazmunli idrok etish erta tug'iladi. Biroq, kichkina bolaning kichik tajribasi va bilimi unga ob'ektlarning muhim tomonlarini ko'rishga imkon bermaydi. Idrok vosita va hissiy reaksiyalar bilan o'zaro bog'liqdir Boshqa tomondan, kuzatish o'zining eng yuqori ko'rinishida kuzatuvchining o'zi tomonidan mustaqil ravishda tashkil etilgan faoliyatdir. Lekin bu mahorat, S.L.Rubinshteynning fikricha, ozmi-ko'pmi keng bilimlar tizimiga asoslanadi.

Kuzatishni boshqarish. Tarbiyachi kuzatishni birinchi marotaba o'tkazayotgan bo'lsa, dastlab bolalarda hosil bo'lgan qiziqishlarini qondirish hamda kuzatilayotgan narsa haqida birinchi taassurot hosil qilish uchun ularni kamida 1-2 daqiqa tomosha qildirib turadi. Kuzatishni boshqarish jarayonida tarbiyachi xilma-xil usullardan bolalarning yoshlariga mos savol va topshiriqlar, narsani ushlab ko'rish, qiyoslash, o'yin harakatlaridan foydalanadi. Tarbiyachi kuzatishni tashkil qila turib, kerakli ma'lumotlarni aytishi, kuzatiladigan obyektning muhim xususiyatlarini ajratishi zarur. Bolalarda kuzatishga nisbatan qiziqish uyg'otish, kuzatilayotgan narsalarni estetik idrok etish uchun tarbiyachi she'rlardan, topishmoqlardan, katta yosh guruhlarida esa badiiy asarlarni o'qishdan foydalanadi.

Ilm-fan va tabiat markazlarida tarqatma materiallardan foydalanib kuzatish bolalarning intellektual rivojlanishida juda muhim sanaldi. Kuzatishlarning bu turi

o'rta yosh guruhlardan boshlab o'tkaziladi. Bunday kuzatishni tashkil etish birgina obyektни kuzatishdan ko'ra ancha murakkabroq bo'lib hisoblanadi. Bu o'rinda tarbiyachi o'z diqqat e'tiborini taqsimlay bilishi, bolalardagi harakatni uyushtirish olishi talab qilinadi, bolalar esa tarbiyachining barcha ko'rsatmalariga aniq rioya qilishlari bir-birlarini tinglashlari, boshqalarning kuzatishlarini o'zlarining kuzatishlari bilan taqqoslashlari kerak bo'lad

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta'lim tashkilotida kuzatish mashg'ulotlarini samarali tashkil etish bolalarning bilish faoliyatini faollashtiradi, ularning tafakkuri, kuzatuvchanligi, nutqi va mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. To'g'ri yo'lga qo'yilgan kuzatish faoliyati bolalarda tabiat va atrof-muhitga nisbatan mehr, qiziqish hamda mas'uliyat hissini shakllantiradi.

Tarbiyachi kuzatish jarayonida bolalarga yo'l-yo'riq ko'rsatib, ularning faol ishtirokini ta'minlasa, mashg'ulotning samaradorligi yanada oshadi. Shunday qilib, kuzatish faoliyati maktabgacha ta'lim tizimida nafaqat bilish jarayonini rivojlantirish, balki bolalarni hayotni idrok etishga, mustaqil fikr yuritishga va tabiat bilan uyg'un yashashga o'rgatadigan muhim pedagogik vositadir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sodiqova Sh.A. Maktabgacha pedagogika. T. Tafakkur bo'stoni. 2013 y.
2. O.U Xasanboyeva, X.J.Djabborova, Z.Nodirova. Bolalarni tabiat bilan tanishtirish metodikasi. T.: Cho'lpon. 2007.
3. Q.H.Xaydarov, S.A.Nishonov. Tabiatshunoslik asoslari va bolalarni tabiat bilan tanishtirish. T. O'qituvchi. 1992 y.
4. N.Ravshanova. Maktabgacha ta'lim muassasalarida ekologik ta'lim-tarbiya. T. Ilm-ziyo. 2006 y
5. Bolalarni tabiat bilan tanishtirish (darslik / o'quv qo'llanma) — Quchqorova N.M., Avazmetova I.R., Ikramova D.U. — Toshkent, 2023. (darslik / universitet
6. Nikolayeva S.N. Maktabgacha yoshdagi bolalarni ekologik tarbiyalash usullari. M. Akademiya. 2001
7. M.M. Markovskaya. Bolalar bog'chasida tabiat burchagi. T., "O'qituvchi", 1999 yil